

Haitov Ilyos Rajabovich

**Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasi stajor o`qituvchisi
O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi**

ARABIY O`ZLASHTIRMA SO`ZLAR SEMANTIK TUZILISHI

So`nggi yillarda leksikologiyada katta yutuqlarga qo`lga kiritildi. Leksik birliklarni o`rganishda sistem-struktur usuli usuli keng qo`llanila boshlandi. Natijada leksima butunlik sifatida komponent tahlil qilina boshlandi. O`zbek tilining leksik sathida hali yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Ana shunday muammolar qatoriga o`zbek tili leksik qatlamida alohida maydonni egallab turgan arabizmlarning semantik xususiyatlarini o`rganish masalasidir. Arabcha o`zlashma so`zlarni o`zbek tilida qanday mazmuniy o`zgarishlarga uchraganligini o`rganish o`zbek leksikologiyasida kam o`rganilgan sohalardan hisoblanadi. O`zlashma so`zlarning semantik tuzilishdagi o`zgarishlarni o`rganish tillarning o`zaro ta`siri masalasini yoritishda muhim ahamiyat egallaydi.¹

Tillarning o`zaro ta`siri va ularning dunyo tilshunosligidagi o`rganish tarixi haqida ko`plab qarashlar mavjuddir. Dunyodagi hech bir til faqat o`z ichki manbalariga suyanib ish ko`rmaganidek, o`zbek tili ham faqat o`z so`zlari, o`z qatlam boyliklari va imkoniyatlari bilan taraqqiy qila olmaydi. O`zbek tili lug`atining boyishida tashqi manba ham muhim ahamiyatga ega bo`lgan. Zero hech qanday til sof holda yashay olmaydi.² Har qanday til “o`z” va “begona” so`zlarga ega bo`ladi. O`zbek tilining taraqqiy topishida ko`plab o`zlashma so`zlar kirib kelgan. O`zlashma so`zlar bir til tomonidan ikkinchi bir tilga o`zlashtirish bo`lib, yani leksik birliklarini o`zlashtirish odatda yangi hodisalarni keltirib chiqaradi.³

O`zlashma so`zlar so`z beruvchi tildagiga nisbatan muayyan o`zgarishlarga uchrashi mumkin. Bunday o`zgarishlar mazmuniy aspektida ham, shaxsiy aspektida ham kuzatiladi. Mazmuniy jihatdan so`z o`zlashtiruvchi tilda turli semantik o`zgarishlarga yuz tutadi. O`zlashma so`zlarning semantik tuzilishidagi o`zgarishlar asosan uch xil yo`l bilan boradi.

1. O`zlashma so`zlar semantik tuzilishidagi **kengayish** hodisasi,
2. O`zlashma so`zlar semantik tuzilishining **torayishi**,
3. O`zlashma so`zlar semantik tuzilishining **uzoqlashuvi** va **zidlashuvi**.

O`zlashma so`zlar semantik tuzilishining kengayishi hodisasi so`z ma`nosи taraqqiyotiga xos bo`lib, bu hodisa semalarning miqdori ortishi hisobiga vujudga

¹ Abdullayev F.A. O`zbek tilida arabizmlar. Kand.diss.. Toshkent 1945; Rustamov A. Navoiy tilining grammatic xususiyatlari. – Toshkent 1984.

² Ильиненко Т.П. Языковые контакты. – М.1970. – с.21.

³ Вандриес Ж. Язык. – М.1937 – с.213

keladi. O’zlashma so’zlarnig ma’no tuzilishining kengayishi odatda turli yo’l bilan yuzaga keladi:

- a) O’zlashma so’zlar semantik tuzilishining oddiy yo’l bilan kengayishi,
- b) O’zlashma so’zlar semantik tuzilishining yordamchi fellar vositasida kengayishi,
- c) O’zlashma so’zlar asosida yangi leksik birliklar yasalishi yo’li bilan kengayishi,
- d) O’zlashma so’zlar semantik tuzilishining “nom ko’chish” hisobiga kengayishi,

O’zlashma so’zlar semantik tuzilishining oddiy yo’l bilan kengayishi odatda, o’zlashtirilayotgan so’zning subyektdagi aniqlashgan semasi yangi semalar hosil qilishi bilan yuzaga keladi. Masalan o’zbek tilidagi “anqo” o’zlashmasining semantik tuzilishi kengayishida shunday hodisani kuzatishimiz mumkin. Bu so’z arab tilida bir ma’noli so’z bo’lib, “afsonaviy qush” ma’nosida qo’llaniladi. O’zbek tilida “anqo” so’zi o’zining semasi bilan o’zlashtirilib olingan. Keyinchalik shu sema asosida bir necha boshqa semalar ham yuzaga kelgan. Biroq bu so’zning mazmuniy tuzilishidagi arab tilidan o’tgan markaziy semasi bosh sema bo’lib qolaveradi. Hozir “anqo” so’zi o’zbek tilida quyidagi ma’nolarda qo’llaniladi:

1. Afsonaviy qush. 2. Bo’limg’ur narsa. 3. Topilmas narsa. Masalan: “o’g’riga vijdon anqodir”. (maqol)

Semantik tuzilishining bunday kengayishi quyidagicha aks etadi:

S.B.T – so’z beruvchi til

S.O’.T – so’z o’zlashtiruvchi til

O – semalar.

Semantik kengayish hodisasi faqat SBT dagi bir ma’noli va aniq ma’noli so’zlargagina xos bo’lmay, balki arab tilida ko’p ma’nolar ega bo’lgan so’zlarga ham xosdir. Bunda SO’T da so’zning o’zida mavjud bo’lgan semalar asosida yangi semalar vujudga keladi. Masalan arab tilidan o’zbek tiliga o’zlashgan “azamat” so’zining o’zbek tilidagi semantik tuzilishining kengayishi, yuqoridagi qoida asosida hosil qilingan. Bu so’z arab tilida quyidagi semalarga ega:

1. Kuchli, buyuk, 2. Sharaf, faxr, 3. Munosiblik.

أعظم الناس - buyuk insonlar.

Yo’lchi butun azamat gavdasini silkib kuladi. (Oybek)

2. Quvvatli , ulkan, katta.

Qishloqni yoqalab o’tadigan azamat daryoning kuchga to’lgan kezları ham xuddi shu bahorga to’g’ri keladi. (A. Raxmat)

3. Ulug’, salobatli, - “Azamat bino”.

4. Munosib, arziydigan. Senga ham azamatini topib qo'yanman – dedi Shomurod iljayib. (S. Mirzo).

5. Azamat (erkaklarning ismi).

Yuqorida keltirilgan misolda ko'rinish turibdiki, o'zlashma so'z SBTdagi ma'nolariga parallel ravishda bir necha qo'shimcha semalarga ega bo'lgan. Semantik tuzilishining bunday o'zgarishi **asir**, **olam**, **azon**, **baxt** va shunga o'xshash ko'plab o'zlashma so'zlarda kuzatiladi.

Semantik tuzilish kengayishining sermahsul usuli bu – semantik tuzilishining yordamchi fe'llar hisobiga kengayishi “yetakchi so'z – yordamchi fe'l” shaklida yuzaga keladi. Bu hodisada o'zlashma so'z bilan birga kelgan fe'llarning semalari, so'z semalari bilan birgalikda yangi semalar hosil qiladi. Semantik tuzilishining bunday kengayishida, shubhasiz, SBTdagi semalar bilan SO'Tdagi semalar o'rtasidagi aloqadorlik saqlanib qoladi.

So'zning asosiy semasi keyin paydo bo'lgan semalarga nisbatan markaziy sema vazifasini o'taydi.” Asos” so'zi arab tilida quyidagi semalarga ega:

1. Asos, fundament, baza, 2. Boshlang'ich nuqta, manba, 3. Asosiy qonun,

4. Asosiy ohang (musiqiy).

على اساس المقابلة المثل - hamkorlik

لا اساس له - asossiz, isbotsiz.

وضع الحجر الاساس - asosi – fundamenti qo'yildi.

Bu so'zning o'zbek tilida ham shu ma'nolari saqlanib qolgan. Shu bilan birgalikda ko'makchi fe'llar yordamida o'z semantik tuzilishini kengaytirishga erishgan.

1. Asos + solmoq - poydevor qurmoq, boslab bermoq.

2. Asos + bo'lmoq – sabab bo'lmoq.

3. Asos + keltirmoq – dalil keltirmoq, isbotlamoq.

4. Asos + qilmoq – tayanch qilmoq, sabab qilmoq.

5. Asos + etmoq – suyanmoq, asos qilmoq, asoslanmoq.

Misol: “Sening begunohligingni asos qilib, shu ishga qo'l urdim”. (S. Nasifiy)

Keltirilgan misolda **asos** so'zi o'zbek tilida o'z semantik tuzilishini yordamchi fe'llar vositasida bir muncha kengaytirgan. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki yuqorida keltirilgan misollarda **asos** so'zining ko'p semantik tuzilishga ega ekanligi keltirilgan. Bundan boshqa bir qancha ma'nolarda ham qo'llaniladi, bu yerda **asos** so'zining eng ko'p qo'llanilgan varianti keltirib o'tilgan.

Bizga ma'lumki dunyodagi barcha tillar har doim rivojlanish va kengayishdadir. Shunday ekan tillarda o'zlashma so'z va atamalar ham ko'pdır. Qaysi bir tilga qaramang boshqa tildan o'zlashgan so'zlarni ko'ramiz. Agarda boshqa tillardan so'zlarni o'zlashtirmsa, u tilning so'z boyligi ham kamayib boradi.

Tilshunoslarning fikricha “tilning rivojlanishida ichki va tashqi omillarning ta’siri muhim rol o’ynaydi”. Haqiqatdan ham jamiyat va davlat rivojlanishi bilan birqalikda, til ham rivojlanib boradi. Maqolada ham ona tilimizga kirib kelgan o’zlashma so’zlarning semantik kengayishi haqida so’z yuritildi. O’zbek tiliga arabcha so’zlarning ko’pi o’zlashgan, bunga asosiy sabab albatta Islom Fathi deb bilaman. Shu sababdan ham buyuk alloma va olimlarimizning asarlaridagi so’zlarning aksariyati arabcha so’zlarni tashkil qiladi. Qisqacha qilib aytganda o’zlashma so’zlarning semantik ma’nosi keng va tor ma’noda qo’llanilar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayev F.A. O’zbek tilida arabizmlar. Kand.diss.. Toshkent 1945;
2. Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. – Toshkent 1984.
3. Иляшенко Т.П. Языковые контакты. – М.1970.
4. Вандриес Ж. Язык. – М.1937
5. Шаматов О.Н. Очерки исторической лексикологии хинди и урду. – Ташкент 1990.
6. Лексикология современного персидского языка – М. 1975ю. Лексика языка девана Гадаи. – Ташкент. 1992.
7. O’zbek leksikologiyasi. Toshkent 1981.
8. Ibrohimov N. Arab tili grammatikasi. Тошкент. 1997.